

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

AMIR TEMUR ULKAN SALTANAT VA MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI.

Fattoyeva Gavhar Hikmatillo qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakultet Tarix yo'nalishi

3-bosqich 311-21-guruh talabasi.

Anotatsiya. Yevropa olimlari Amir Temur davlati Osiyodagi eng so'nggi buyuk saltanat edi, deya e'tirof etadilar. Sohibqiron Temur bunday katta davlatni, markazlashgan yirik saltanatni qanday tuzdi, qaysi yo'llar bilan uni tartibga keltirdi va uning uzoq yillar hukmronlik qilishida qaysi omillar yetakchilik qildi? Bu savollarga javob izlar ekanmiz, biz uchun «Temur tuzuklari» asosiy manba sifatida xizmat qiladi. To'g'ri, Amir Temur to'g'risidagi tarixiy manbalar oz emas. Lekin ulardagi ma'lumotlarning barchasini bir xilda qabul qilishga oshiqmaslik kerak. Hatto, hozir ham ba'zi adabiyotlarda Amir Temur davriga har kimning o'zicha yondashuvlari mavjudki, ulardan foydalanganda alohida sharh va tahlillar talab etiladi. Shuning uchun ham biz Amir Temur davlatining vujudga kelishi masalasida mumtoz asarlar va «Tuzuklar»ga suyanishni lozim topdik.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, Amir Qozog'on, Sarbadorlar harakati, jetelar, Ilyosxo'ja, Temur tuzuklari.

Annotation. European scientists admit that the state of Amir Temur was the last great kingdom in Asia. How did the master Temur create such a large state, a large centralized kingdom, in what ways did he organize it, and what factors led to his long reign? While looking for answers to these questions, "Temur's rules" will serve as the main source for us. True, there are many historical sources about Amir Temur. But you should not rush to accept all the information they contain. Even now, in some literature, everyone has their own approaches to the era of Amir Temur, which require special comments and analyzes when using them. That's why we found it necessary to rely on classical works and "Tuzuks" in the matter of the creation of Amir Temur's state.

Key words: Chigatoy ulus, Emir of Kazakhstan, movement of Sarbadors, jets, Ilyashoja, Temur's rule.

Deyarli barcha mumtoz va zamonaviy tarixiy asarlarda ko'rsatilganidek, XIV asrning o'rtalariga kelib, Movarounnahrda Chig'atoy* ulusining ikkiga bo'linib ketishi natijasida hokimiyat ancha zaiflashib, bu davlat o'zining inqiroz davrini boshidan kechirmoqda edi. 1346 yilda Chig'atoy xonlaridan Qozonxon (1338-1346) o'zining amir ul umarosi bo'lgan nufuzli turk amiri Amir Qozog'on (1347-1358) tomonidan o'ldirilgach, Chig'atoy ulusining xonligiga shu sulola vakili Donishmandcha xon ko'tariladi. Ammo amalda butun hokimiyat Amir Qozog'on qo'lida edi. Uning davridan boshlab, xonlik tizimi o'rnini amirlik boshqaruvi ola boshlaydi. Ya'ni rasman Chig'atoy naslidan bo'lgan xonlar hokimiyati tan olinsa-da, lekin ulusni boshqarish amalda amir qo'lga o'tgan. 1365-1370 yillar orasida Sohibqironning davlat tuzish borasida oldida turgan eng muhim muammolar quyidagilar edi:

1. Avvalo Movarounnahrni mo'g'ullar zulmidan butunlay xalos etish, u bilan murosa qilish.
2. Amir Husaynga istagan viloyatini berib, uni nazoratda tutish.

3. Turli viloyatlarda «qo‘g‘irchoq» hukumat tuzib, Movarounnahrni parokanda etgan amirlarni tobe holatiga keltirish.

4. Mamlakat chegaralarini mustahkamlash, poytaxtni tanlash, uni obod etish.

5. Qo‘shinni tartibga keltirish, oziq-ovqatidan tortib, navkarlar maoshini to‘lashgacha bo‘lgan barcha ishlarni hal etish.

U o‘zining o‘n ikkinchi kengashida «to‘g‘ri chorayu tadbir ishlatib, Ilyosxo‘ja lashkarini sindirdim», deb yozadi. O‘n uchinchi kengashda o‘qiyimiz: «Jete lashkari urushda yengilganiga iqrar bo‘lganidan keyin, ikkinchi bor jang qilishga botinolmadi, «chorasiz qolgan Ilyosxo‘ja Xo‘jand suvidan o‘tib ketdi».

Shundan so‘ng Amir Temur saltanat mustaqilligini mustahkamlashga kirishadi. Bu to‘g‘rida «Tuzuklar»da shunday yoziladi: «Kengashlarim o‘zini shavkatli, buyuk amir deb hisoblagan va boshqa amirlardan o‘zini ulug‘roq bilayotgan amirlarni itoat ettirib, bo‘ysundirishga qaratilgandi». Amir Temur oldida amir Husayn masalasi ko‘ndalang turar, bu o‘sha paytda birinchi vazifa hisoblanib, uni tezda qat’iy hal etish lozim edi. 1365 yildagi «Loy jangi»dan so‘ng Sohirqiron unga ishonmay qo‘ygandi. Shu bois, uni Xo‘ja Shamsiddin Kulol mozoriga olib borib, do‘stlik izhor qilib, qasam ichsa-da, keyinchalik u o‘z qasamini buzadi va xun talabgorlari tomonidan o‘ldiriladi. Boshqa amirlar ham yoki kengash bilan yoki urush, yoxud diplomatiya yo‘li bilan bo‘ysundiriladi. 1370 yilning 9 aprelida Balxda o‘tkazilgan Qurultoy uni qadimgi turk odati bo‘yicha oq kizgiga o‘tkazib, Movarounnahr hukmdori deb e‘lon qiladi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, ba‘zi nusxalarida bu voqea boshqacha tarzda keltirilgan. Jumladan, «Qissai Temur»da ta‘riflanishicha, «jetelar» tor-mor keltirilib, bir vaqtlar Temurning ittifoqchisi bo‘lgan, keyinchalik uning dushmaniga aylangan Amir Qozog‘onning nabirasi Balx hukmdori bo‘lib turgan Amir Husayn ham halok bo‘lgach, o‘sha davrda ta‘siri kuchli bo‘lgan uch hukmdor – Badaxshon hokimi Shoh Muhammad Badaxshiy, Xatlon hokimi Amir Kayxusrav Xuttalanij va o‘zini ming oilalik sulduzlar urug‘ining hokimi deb bilgan amir Shayx Muhammad Bayon sulduz Movarounnahr hukmdorligiga da‘vo qiladilar. Ana shu vaqtda Termiz Sayidlaridan Sayid Abdul Barakot Amir Kayxusrav talabi bilan qur‘a tashlaydi. Qur‘a uch marta ham Amir Temur nomiga chiqqach, o‘n ikki amir unga bo‘yinsunib muborakbod qilishadi. Shundan so‘ng: «Sana yetti yuz yetmish biridakim, o‘ttiz besh yoshga kirib erdim, to‘rt azamushon sayidkim, alarning biri Sayid Abul Barakot va yana biri Abul Ma‘oniy va yana biri Amir Ziyovuddin, va yana biri Amir Ali Akbar edi, saodatlig‘ saotida maning qo‘lumni tutub, saltanat taxtig‘a mindurdilar», deb yozadi Amir Temur bu haqda. «Va man taxtga mingan kun avval umaro sipohining ulturmoq va tik turmoqlik tuzukin qildim. Samarqand va Buxoroning ra‘iyatlarin tavobi bila tarxon qildimkim, alardan molu manol olmasunlar», degan ma‘lumotlar ham boshqa manbalarda uchramaydi. Shu tariqa Movarounnahr hayotida yangi davr boshlanadi. Amir Temur nomi olamga yoyildi. Amir Temur shaxsi uning davlat tuzish hamda askarboshilik faoliyati haqida yaqin-yaqingacha faqat bir tomonlama yondashib kelindi. Shu davr to‘g‘risida ilmiy ish yozgan mualliflar, asosan, tarixchi Ibn Arabshohning «Temur taqdirida taqdir ajoyibotlari» nomli asaridagi unga berilgan ta‘rifiga suyanib, uni rahmsiz, johil, zolim Chingizxondan hech kam bo‘lmagan o‘rta asr hukmdori deb ta‘riflab keldilar. Ammo shu narsani tan olish kerakki, Ibn Arabshohning kitobi diqqat bilan o‘qilsa, Temurga berilgan salbiy baholardan ijobiylari ko‘proq. Ammo Ovro‘po tarixchilari shu kitobda keltirilgan uch qatorgina ta‘rifni ushlab olganlar, xolos. Shuning uchun ham bunday bir tomonlama yondashishni, eng avvalo, g‘arazsiz deb baholab bo‘lmaydi, qolaversa, bu tarixiy fakti buzib ko‘rsatishdir. To‘g‘ri, Amir Temur o‘z davrining hukmdori, uning shaxsi ziddiyatli

bo'lib, faoliyatida adolat va qatgiqqo'lliklar bir chiziqda yotadi. Uning davlat arbobi va askarboshilik faoliyatini ikki davrga bo'lish mumkin:

Temurning Chig'atoy ulusida hokimiyatni qo'lga kiritishi. Mo'g'ullar zulmini ag'darib tashlab, mustaqil markazlashgan davlat tuzishi (1370-1380 yillar).

Imperiyaning kengaytirish maqsadida o'zga mamlakatlarni asoratga solish davri. Markazlashgan davlat tuzilgach, butun kuchini qisman mudofaa va istilo urushlariga burdi (1380-1405 yillar). Tez fursatda Xuroson va Eronni, Hindiston, Iroq, Suriya va Misrni, Rum va Kavkazortini bosib olib, o'z davlati hududlariga qo'shdi. Shunisi xarakterliki, faqatgina Temurda emas, balki o'rta asrning deyarli barcha hukmdorlarida shunga o'xshash o'zga yerlarni bosib olish kayfiyati mavjud bo'lgan. Markazi Samarqand bo'lgan juda kuchli davlat vujudga kelgan bir davrda Osiyoda ikkita kuchli Turk davlati bor zdi. Bu davrga kelib, Oltin O'rdada oz sonli bo'lgan mo'g'ul urug'lari musulmonchilikni qabul qilib, turkiy urug'larga tamomila singib ketgan edilar. Oltin O'rdaning davlat tili xorazmiy turkiy tili edi. Anatoliyada esa qudratli Usmonli turklar davlati tashkil topib, ular Rum (Vizantiyaga), Sharqiy Yevropaga tahdid solib turar edilar. Usmonli beklar nasablari bo'yicha Markaziy Osiyolik turk beklariga yaqin edilar. Temur davlatining yashash va yashamasligi ana shu ikki davlat bilan bo'ladigan munosabatga ham bog'liq edi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Amir Temur ko'p o'tmasdan, o'z ittifoqchisi bo'lgan Turk amiri Qozog'onning nabirasi Husaynni jangda yengib, 1370 yilda uning bosh kenti – Balxni qo'lga kiritadi va ikki daryo oralig'ida markazlashgan kuchli davlat tuzishga kirishadi. Uning bu ishida Chig'atoy beklari, harbiy boshliqlar, ruhoniylar va shaharliklar orasida tayanch kuchlar vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi” 5-tom- T.; 1997. 167-bet.
2. Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” T. “O'zbekiston”-2011.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. - М.: Международные отношения. - 1980. - 341 б.
4. Omonulla Bo'riyev “Sohibqiron Amir Temur” T. “O'zbekiston”-2011. 76-bet
5. M.I.Ivanov “ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur, harbiy san'ati, strategiyasi va taktikasi”. Yangi asr avlodi. Toshkent. 2018. 10-bet
6. Hamdam Sodiqov “Amir temur hayotidagi g'aroyibotlar”. “Art Flax” Toshkent- 2007. 279-bet.
7. Lyusen Keren “Amir Temur saltanati” T. Ma'naviyat 1999-yil.